

CHILLA DAVRI FIZIOLOGIYASI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti PhD

Tilyavova Sitora Amirzoda

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 1-son
Akusherlik va Ginekologiya kafedrasi ordinatorlari*

O'rinboyeva Mastura O'ktam qizi

Qamarova Zarnigor Shamsiddinova

Annotatsiya. Ushbu maqola ayollarda tugruqdan keyingi ilk holatlarni normal yoki nonormal o'tiyotganligini bilishlari va tushunishlari uchun tayyorlandi. Bundan ko'zlangan maqsad chilla davri infeksiyalarini oldini olish va kovrsatillar tamoyillarga asosan chilla davrini normal o'tkazishdir

Kalit so'zlar. Chilla davri, tuqqan ayollar organizmidagi o'zgarishlar, bachadon, bachadon qisqarishi, qon ketishlar, bolani ko'krak sutiga o'rgatish.

Абстрактный. Эта статья подготовлена для того, чтобы женщины знали и понимали, является ли первый послеродовой период нормальным или ненормальным. Целью этого является предотвращение инфекций холодного периода и проведение нормального холодного периода на основе универсальных принципов.

Ключевые слова. Период озноба, изменения в организме рожавших женщин, сокращение матки, маточные кровотечения, приучение ребенка к грудному молоку.

Abstract. This article has been prepared for women to know and understand whether the first postpartum period is normal or abnormal. The purpose of this is to prevent cold period infections and to conduct a normal cold period based on universal principles.

Keywords. Chilla period, changes in the body of women who have given birth, contraction of the uterus, uterus, bleeding, teaching the child to breast milk.

Chilla davri — tug'ruqdan (yo'ldosh tushgandan boshlab) keyingi 6 — 8 haftagacha bo'lgan davr. Tug'ruqdan keyingi birinchi soatlar (1 sutkagacha) esa ilk chilla davri hisoblanadi. Bu muddatda ko'p qon ketish holatlari kuzatiladi, shu sababli alohida e'tibor va kuzatuv talab etiladi. Xalq tabobatida Chilla davri 40 kun hisoblanib, shundan 20 kuni kichik chilla, 20 kuni katta chilla deyiladi.

Chilla davrida homiladorlik, tug'ruq davrida ayol organizmi (a'zo va sistemalari)da sodir bo'lgan fiziologik o'zgarishlar asliga qaytadi (involyutsiya). Chilla davrining 1—2kuni bachadon tubi kindik ro'parasida (qovdan 12 sm yuqorida) turadi. Chilla davrining 10—12 kuni davomida bachadon qisqarib, tubi odatdagicha qov

suyagi ortiga o'tadi. Chilla davrining dastlabki kunlari bachadon og'irligi 1000 g bo'lsa, 8hafta oxirigacha kamayib, 50—60 g ga tushadi.

Bachadon bo'ynining ichki teshigi tug'rukdan keyin, tashqi teshigi 3haftada berkiladi. Bachadon qisqarayotgan davrida shilliq qavati ham tiklanib, astasekin bachadon ichki yuzasini qoplab boradi. Chilla davrining 3haftasiga kelib, bachadonning epiteliy qavati to'la tiklanadi. Bu jarayon tugallangunga qadar tug'ruq vaqtida bachadon ichki yuzasida hosil bo'lgan jarohlardan Chilla davriga xos ajralma — loxiyalar kelib turadi. Loxiyalar Chilla davrining 3—4kuni qonli, qipqizil bo'lib, keyin rangsizlanadi va kamayadi, 5—6 haftaga borib to'xtaydi. Chilla davrida qin (diloq) tonusi tiklanadi, tashqi jinsiy a'zolar, qin va bachadon bo'ynining chaqalangan, yirtilgan, shilingan jarohlari bitadi. Bachadonning cho'zilgan boylamlari sekinasta kaltalashib, bachadon naylari va tuxumdonlar odatdagi holiga keladi.

Bachadon qisqarishi

Tug'ruqdan so'ng bachadon sekin-asta qisqarib, chilla davri tugangunga qadar o'z holiga qaytadi. Avvaliga a'zo qisqarishi tezlashib, tug'ruqxonada qorinning pastki sohasidagi og'riqlar bilan kechadi. Bu jarayon tug'ruqdan keyingi 2-3-kunlarga to'g'ri keladi. Tug'ruqxonada bachadon holati shifokorning kunlik tekshiruvi yordamida nazorat qilinib, tug'ruqxonadan chiqish oldi ultratovush tekshiruvi orqali tahlil qilinadi. Bu jarayonda nafaqat a'zo holati, balki bachadon ichida qon quyqalari, yo'ldosh parchalarining bor-yo'qligiga ham e'tibor beriladi. Bordiyu a'zo qisqarishi me'yorda bo'lmasa, shifokor tomonidan ma'lum turdagi preparatlar buyuriladi.

Bachadon qisqarayotgan vaqtda yo'ldosh joylashgan yuzadagi shilliq qavat ham tiklanib, asta-sekin bachadon ichki yuzasini qoplab boradi. Bu jarayon tugallangunga qadar tug'ruq vaqtida bachadon ichki yuzasida hosil bo'lgan jarohlardan chilla davriga xos chiqindilar ya'ni loxiyalar kelib turadi. Shifokorlar fikricha, emizayotgan ayollarda bachadon qisqarishi me'yorda bo'lar ekan.

Qin ajralmalari

Tug'ruqdan so'ng yo'ldosh ko'chgan bachadon yuzasi yara bilan qoplanadi. Bachadon qisqarishi hisobiga yaradagi uzilgan tomirlardan qon oqa boshlaydi. Tug'ruqdan keyingi ilk kunlarda qonli ajralmalar nisbatan ko'p bo'lib, chilla davrida sekin-asta kamayib boradi. Avvaliga ajralmalar qon aralash kelsa, bora-bora rangi ochroq, sarg'ish tusga kirib boradi. Har bir ayol organizmi individualligi hisobiga ajralmalar davomiyligi ham turlicha bo'lishi mumkin. Ammo normal holatda qonli ajralmalar chilla vaqti tugaguniga qadar yakunlanishi lozim.

Bachadon tushishi

Homilaning katta o'lchamda tug'ilishi, tug'ruqdan keyingi davrda og'ir yuk ko'tarish, homiladorlikdan avval jismoniy kuch talab qiladigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish hamda egizak farzandlarni dunyoga keltirish natijasida ba'zan bachadon tushishi kuzatiladi. Agar ayol salomatligiga e'tiborli bo'lib, ortiqcha og'ir yuk

ko'tarmay, egilmay, shifokorlar maslahatiga rioya qilsa, bachadon sekin-asta asl holiga qaytadi. Ammo turli bezovtaliklar hamda og'riqlar bo'lganda jarrohlik amaliyotiga murojaat qilinishi mumkin.

Oyoqlar uvishishi

Ba'zan yangi tuqqan ayollar go'dagini emizayotib, oyoqlari uvishishidan shikoyat qilishadi. Bunga sabab shuki, ayol organizmi homiladorlik davrida kalsiy miqdorini bola uchun sarflab, o'zidagi zahirani tamomlaydi. Natijada oyoqlarda qon aylanishi sustlashib, uvishish yuzaga keladi. Bu kabi o'zgarishlar kuzatilganda shifokor bilan maslahatlashgan holda kalsiy moddasiga to'yingan preparatlar qabul qilish, oyoq va ko'krakni issiq tutish lozim.

Ko'krak

Bola tug'ilgach, ko'krak bezlari faoliyatida ham o'zgarishlar kuzatiladi. Dastlab ko'krakdan bola immuniteti uchun g'oyatda muhim bo'lgan og'iz suti ajraladi. Tug'ruqdan keyingi 3-4-kunga kelib esa to'liq sut ishlab chiqariladi. Ko'krakdan sut kelishi kimlardadir og'riqli kechib, bir qator noqulayliklar tug'ridishi mumkin. Bunday vaqtlarda yoningizda tajribali ayollarning bo'lishi foydadan xoli emas. Sut birdaniga ko'payib ketganida uni sog'ib tashlamay, emizish vaqtini nazorat qiling. Emizishdan avval ko'krak so'rg'ichlarini qaynagan suvda chayilgan sterillangan bint bilan tozalang. Ayniqsa, ko'krak so'rg'ichlarida yoriqlar paydo bo'lsa, tozalikka nihoyatda e'tiborli bo'ling. Aksariyat hollarda ko'krak uchidagi yoriqlar orqali infeksiya tarqalib, mastit kasalligini keltirib chiqaradi. Bolani emizish vaqtida terlagan badanni sochiq bilan pana qiling. Yo'qsa, ko'krak usti nerv tolalariga shamol tegib, sut bezlarida yallig'lanish kelib chiqishi mumkin.

Shular chilla davri fiziologiyasi uchun nechchi list buldi

To'g'ri ichak

Bachadon qisqarayotgan paytda to'g'ri ichak bo'shangan bo'lishi lozim. Ammo ko'p hollarda emizikli ayollar ich qotishidan shikoyat qilishadi. Bunga ayol organizmidagi progesteron gormoni tug'ruqdan keyin ham 5-6 oygacha ta'sirini yo'qotmasligi sabab. Natijada to'g'ri ichakda o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Ammo ayolning to'g'ri ovqatlanishi, ko'proq suyuq taom va sabzavotlardan iste'mol qilishi jarayonni sekin-asta o'z holiga qaytaradi. Tug'ruq vaqtida bachadoni jarohatlangan ayollarga shifokorlar qattiq kuchanmaslik uchun ich kelishini yumshatuvchi preparatlar buyurishadi.

Hayz

Har bir ayol organizmi o'ziga xos. Shu sabab hayz siklining tiklanishi har kimda turlicha davrga to'g'ri keladi. Kimlardadir chilladan so'ng 1-2 oyda hayz sikli tiklansa, kimlardadir emizish hisobiga ancha vaqtgacha hayz kelmasligi mumkin. Ba'zi vaqtlarda bolani emizishdan chiqargach, xayz ko'rish sikli asta tiklanib boradi.

Jinsiy hayot

Shifokorlar chilla davrida jinsiy yaqinlikdan tiyilishni tayinlashadi. Boisi ayol organizmi hali to‘laligicha faoliyatini tiklamagan, ortiqcha zo‘riqish uchun yetarli kuchga ega bo‘lmaydi. Bundan tashqari, «emizikli ayol homilador bo‘lmaydi» degan ibora har doim ham to‘g‘ri chiqavermaydi.

Homiladorlikdan saqlanish

Birinchi tug‘ruqdan so‘ng keyingisigacha taxminan uch yil o‘tishi ayol organizmi tiklanishi uchun yetarli. Shu bois homiladorlikdan saqlanish uchun chilla chiqqach, ya’ni 40-kuni shifokorga uchrab, istalmagan homiladorlikdan himoyalovchi usullar bilan tanishing. Hozirda bunday usullarning dori preparatlari, inyeksiya, mahalliy spiral kabi turli ko‘rinishlari mavjud. Shulardan o‘zingizga mosini tanlab, istalmagan homiladorlikdan saqlanishingiz mumkin.

Chilla davri kasalliklari

Bu vaqtda umumiy shamollash holatlaridan tashqari, jinsiy a‘zolarida yallig‘lanish jarayonlari yuzaga kelishi mumkin. Bunga asosan tug‘ruq vaqtida yo‘ldosh ko‘chganidan so‘ng bachadon bo‘yni, qin oraliqning shilingan, yirtilgan, ezilgan joylaridan kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroblar hamda ayol organizmida mavjud bo‘lgan infeksiyalarning jarohatlangan bachadon yuzasiga tushishi sabab bo‘ladi. Shuningdek, qog‘onoq suvining erta ketishi, toksikoz, ayol organizmining zaiflashuvi va boshqa kasalliklar, homiladorlik davrida gigiyena va ovqatlanish rejimining buzilishi ham muayyan noxushliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Agar umumiy holatingizda bezovtalik sezsangiz yoki jinsiy a‘zolarida noodatiy o‘zgarishlar kuzatilsa, albatta shifokorga murojaat eting.

Kindik tushishi

Kindik qoldig‘i odatda tug‘ruqdan so‘ng 4-5 kun ichida tushib, ba’zi vaqtlarda 8-10 kunlarga ham cho‘zilishi mumkin. Agar kindik sohasida namlik bo‘lsa, 70 foizli spirt eritmasi tomizilib, sterillangan bint yordamida artiladi. Ayrim vaqtlarda chaqaloqning muntazam bezovta bo‘lib, yig‘lashi sababli ham kindikda shish kuzatiladi. Bordiyu chaqaloqning kindigi qoldig‘i 15 kun ichida ham ko‘chib tushmasa yoki soha atrofida qizarish, yallig‘lanishga o‘xshash belgilar kuzatilsa, darhol shifokorga murojaat eting.

Liqildoq

Yangi tug‘ilgan chaqaloqning bosh aylanasi me’yorda 34-36 santimetrni tashkil etib, hayotining ikkinchi oyida 36-37 santimetratrofida bo‘ladi. Bir yoshga qadar esa bu ko‘rsatkich 46 santimetrغا yetadi. Liqildoq chaqaloq boshining tepa qismidagi qotmagan soha, miya ustidagi qalin himoya qavati bo‘lib, me’yoriy holatda chillali chaqaloqlar uchun 26-28 mm, ikkinchi oydan boshlab 22-25 mmatrofida bo‘lib, bir yoshgacha 8-10 mm.gacha kichrayib boradi. Bola boshidagi liqildoq taranglashib, shishgan bo‘lsa va u bezovtalansa, bosh miya bosimining oshgani taxmin qilinadi. Bu holatda albatta shifokor bilan maslahatlashish zarur.

Тана vaznining o'zgarishi

Yangi tug'ilgan chaqaloq hayotining birinchi 4 kuni davomida 10% (200-300 gr atrofida) vazn yo'qotishi normal holat hisoblanib, organizmning moslashuv jarayoni hisobiga amalga oshadi. Bola hayotining 6-8-kunlariga kelib, tana vaznini asta-sekin tiklab boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chilla davri ayol uchun ham uning farzandi uchun ham g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan davr. Bu davrda ona va bola salomatligiga qanchalik yaxshi e'tibor qaratilsa, kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan kasalliklarni asosiy qismi bartaraf etilgan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ya.N.Allayarov akusherlik va ginekologiya kitobi 55-65 betlardan
2. M. F Ziyayeva, G. X. Mavlyanova ginekologiya kitobi 2018 14-19 betlar

Internet saytlari

1. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
2. <https://www.savol-javob.com/hayz-haqida-toliq-malumot/>
3. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
4. Med24